

**YIG‘MA TEMIR KONSTRUKSIYALI YANGI YIL ARCHASIDA SODIR BO‘LGAN
YONG‘INLARNI O‘CHIRISHDA O‘Z O‘ZINI O‘CHIRISH TIZIMI****Sh.Sh.Mustaqimov***(O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi 4-bosqich kursanti)*

Annotatsiya: *Maqola matnida yong‘in o‘chirish rahbarlarining sodir bo‘layotgan turli yong‘inlarning samarali bartaraf etilishini ta‘minlashda yong‘in-qutqaruv bo‘linmalari tomonidan uzatiladigan o‘chirish vositalarining sarfi bo‘yicha samarali harakatlarni amalga oshirishda optimal echimlarni ishlab chiqish orqali bo‘linmalarning tezkor-taktik harakatlarini takomillashtirilganligi haqida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Kuch, vosita, mashg‘ulot, yong‘in o‘chirish nazariyasi, tezkor-taktik harakatlar, matematik boshqarish usullari.*

Аннотация: *В тексте статьи были высказаны мысли о совершенствовании оперативно-тактических действий пожарных подразделений путем выработки оптимальных решений по выполнению эффективных действий по расходу средств тушения, передаваемых пожарно-спасательными подразделениями при обеспечении эффективной ликвидации различных возникающих пожаров.*

Ключевые слова: *Силовая, двигательная, тренировочная, теория пожаротушения, оперативно-тактические действия, математические методы управления.*

Annotation: *In the text of the article, thoughts were expressed about improving the operational and tactical actions of fire departments by developing optimal solutions for the implementation of effective actions for the expenditure of extinguishing means transferred by fire and rescue units while ensuring the effective elimination of various emerging fires.*

Keywords: *Power, motor, training, fire extinguishing theory, operational and tactical actions, mathematical management methods.*

Jahonda 260 dan ortiq millat va elatlar mavjud bo‘lib, har bir millatning milliy bayramlari va an‘analari ham mavjuddir. Biroq, butun jahon aholisi tomonidan nishonlanadigan, eng quvonchli va eng zavqli bayramlardan biri bu yangi yil bayramini misol keltirsak bo‘ladi. Albatta, yangi yil bayrami juda qiziqarli bayramlardan biri hisoblanadi. Yangi yilni esa archasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki yangi yil archasi barchaga, asosan yosh avlod hisoblanmish bolajonlarimiz uchun quvonch keltiruvchi animatsion vosita hisoblanadi.



1-rasm. Yangi yil archasi oldida navbatchilikni tashkillashtirish ishlari

Yangi yil bayramining shukuhi dekabr oyining ilk kunlaridan boshlanadi va barcha viloyat, tuman, shahar, aholi ko‘p yashaydigan va yig‘iladigan maskanlarda yangi yil archasi qad rostlaydi va ko‘zni quvontiradigan bezaklar va bejirim chiroqlar bilan yoritiladi. Shu sababli yangi yil archasining atrofi insonlar ko‘p yig‘iladigan va to‘planadigan joyga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida archa atrofida xavfsizlikni ta‘minlashni talab etadi. Jamoat xavfsizligini ta‘minlashda esa ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari tomonidan doimiy navyuatchilikda bo‘lishadi. Asosan, bezatilgan archalarda yong‘in xavfsizligini ta‘minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jahonda yangi yil arafasida sodir bo‘lgan yong‘inlarni ommaviy axborot vositalari va statistik tahlillar orqali o‘rganishimiz mumkin. Ko‘p hollarda archalardagi yong‘inlarning sodir bo‘lishi bezatilishidagi elektr uskuna va vositalarining noto‘g‘ri ulanishi yoki yuqori kuchlanishning hosil bo‘lishi evaziga katta miqdordagi moddiy zararining keltirish chiqarishiga sabab bo‘lmoqda.



2-rasm. Jahonda yangi yil archalarida sodir bo‘layotgan yong‘inlar

Xuddi shunday ko‘ngilsiz hodisalar yaqin 3 yil mobaynida respublikamizda bir necha bor sodir bo‘lgan, jumladan, 2019-yil 5-yanvar kuni Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri Yangi Chorsu ko‘chasi Muqimiy drama teatri hovlisida o‘rnatilgan diametri $d=6$ m balandligi $h=23$ m bo‘lgan yangi yil archasida uzoq vaqt yonib turgan bezak (girlyan)dagi simlarida qisqa tutashuv natijasida yong‘in kelib chiqqan. Yong‘in boshlangandan so‘ng alanganing tarqalish tezligi $J=0,5$ m/daq bo‘lgan va yonish

maydoni kengaygan sari jadallik oshib borgan. Yong'in haqida 17:15 da xabar kelib tushgan va 17:18 da ikkita ekipaj yetib kelib yong'inni o'chirishgan. Yong'in natijasida jabrlanganlar yo'q. 2021-yil 23-dekabr Farg'ona viloyati markaziy bozori maydonchasida o'rnatilgan yangi yil archada yong'in sodir bo'lgan. Yong'in haqida yong'in-bo'linmalariga soat 13:27 da xabar tushgan va 13:30 da yong'in manziliga yetib kelishgan, 13:31 da yong'in qurshab olinib, 13:33 da to'liq o'chirilgan. Yong'in natijasida jabrlanganlar yo'q. Moddiy zarar hisoblanganda taxminan 400 million so'mni tashkil qilgan. 2021-yil 27-dekabr kuni Navoiy viloyati hokimligi hovlisida o'rnatilgan yangi yil archasida uzoq yog'ingarchilikdan so'ng yoritish chiroqlarida qisqa tutashuv natijasida yong'in kelib chiqqan. Markaziy archa o'rnatilgan joyda ikkita yong'in-qutqaruv otryadining 2 ta yong'in-qutqaruv bo'linmalari tomonidan soat 19:07 da kelib chiqqan yong'in 19:20 da to'liq o'chirilgan. Yong'in natijasida zararlanganlar aniqlanmagan. Moddiy zarar taxminan 250 million (ikki yuz ellik million) so'mni tashkil qilgan.

Yuqoridagi ko'ngilsiz holatlarni qayta sodir bo'lishini oldini olish maqsadida Respublika markaziy, viloyat, tuman, shahar hamda balandligi 15 metrdan yuqori bo'lgan barcha yig'ma temir konstruksiyali yangi yil archalarida sodir bo'lgan yong'inlarni o'chirishda o'z o'zini o'chirish tizimi bilan jihozlash bo'yicha quyidagilar taklif qilinadi:

- yig'ma temir konstruksiyali yanchi yil archasining asosiy tayanch ustunining ichki qismidan germetikligi saqlangan suv yetkazish quvurini o'tkazish;
- archaning balandligidan kelib chiqqan holda va suv sarfini hisobga olib, avtomatik yong'in o'chirish tizimini qo'llash;
- yetarlicha yong'inga qarshi suv ta'minoti va suvni yetkazib berish uchun nasos qo'llashni.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligida yangi yil archalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish hamda yong'inning dastlabki davrida o'chirilishini ta'minlash maqsadida eksperimental tadqiqotlarni samarali ta'minlash archalarda sodir bo'layotgan yong'inning tarqalish yo'nalishi va o'chirish jarayoni bilan yaqindan o'rganishini ta'minlashda tadqiqot archasining ishlab chiqilishi ta'minlandi.



3-rasm. Tadqiqot archasining konstruktiv ko‘rinishi.

Ushbu tadqiqot archasining balandligi 3 metrni tashkil qiladi. Archa asosan uch qismdan iborat bo‘lib, archaning har bir qismida sachratuvchi vositalar bilan ta‘minlangan.



4-rasm. Tadqiqotdan oldin archaning bezalishi.

Tadqiqot archasining asosiy vazifasi yong‘in sodir bo‘lganda yong‘inning qisqa muddatlarda o‘chirilishi va katta miqdordagi moddiy zararning oldini olishdan iborat.



5-rasm. Tadqiqot archasining yonish jarayoni.

Olib borilgan tadqiqotlar davomida shu narsa aniq bo'ldiki, respublikamizning barcha xududlarida o'rnatilgan yangi yil archalarida o'zini o'zi o'chiradigan tizimlar bilan ta'minlash talab etiladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yangi yil archalarida sodir bo'ladigan yong'inlarni o'chirishdan ko'ra uning oldini olish afzal hisoblanadi. Biroq, amaliyotda yangi yil bayrami uchun bezatiladigan archalarda sodir bo'layotgan yong'inlarni inobatga olgan holda yong'inlarning dastlabki bosqichida bartaraf etilishini ta'minlash orqali katta miqdordagi moddiy zararlar kamayishini ta'minlanishiga erishilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. А.Д.Худоев, В.Ф.Стетсюк, Р.Э.Қосимов. “Ёнғиннинг тарқалиш ва уни ўчириш жараёндарида ўзгариб борадиган асосий параметрлар қўшма графигини тузиш юзасидан тавсиялар” Ўз.Р ИИВ ЁСОТМ, 2001-йил

2. **Повзик Я- С., Панарин В. М.** Методы совершенствования работы штабов пожаротушения // Сб тр ВНИИПО МВД СССР. М., 1980. Вып 19- С 106-130.

3. Программа подготовки личного состава подразделений ГПС МЧС России// – М., 2004. – 126 с.

4. **Самонов А. П.** Психологическая подготовка пожарных.- М : Строй- издат, 1982 - 37 с.

6. Тактическая и психологическая подготовка руководителя тушения пожаров. – М.; Стройиздат, 1988. – 112 с. ил. – ISBN 5-214-00115-7.